



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI

# DIAGNOSTIKA VA DIAGNOSTIKA METODLARI

**Qobilova Nasiba Ismatjon qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti psixologiya  
o'qituvchisi

# Reja:

Maktabgacha ta'lim  
yoshdagi bolalarning  
psixodiagnostika  
metodlari



Maktabgacha ta'lim  
tashkilotida  
psixodiagnostika  
jarayoni

# MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING PSIXODIAGNOSTIKASI TUSHUNCHASI VA MAQSADI

**Psixodiagnostika** — shaxsning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini aniqlash, o'lchash va baholash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya sohasi. U inson yoki guruhning psixik holati va rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi.



# Psixologik diagnostikaning asosiy prinsiplari:



Ilmiylik – metodlar ilmiy asoslarga ega bo'lishi lozim.



Obyektivlik – ma'lumotlar va xulosalar shaxsiy fikrlarga emas, faktlarga asoslanadi.



Individuallik – har bir insonning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.



Maxfiylik – diagnostika natijalari shaxsiy sir sifatida saqlanishi kerak.



Etika – diagnostik jarayon inson manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

# Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixodiagnostika jarayoni

## Maxfiylik



Diagnostika jarayonida yig'ilgan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.



Ma'lumotlarni boshqa shaxslarga oshkor qilish qat'iyan man etiladi, agar bu shaxsning o'z roziligi bilan bo'lmasa.



Maxfiylik, ayniqsa, tibbiyot, ta'lim yoki oilaviy masalalarda muhim.



# Obyektivlik va adolatlilik



Diagnostika jarayonida psixolog shaxsiy fikr va hissiyotlardan xoli bo'lishi kerak.

Xulosalar ilmiy dalillarga va diagnostika natijalariga asoslanadi, shaxsning jinsi, millati, diniy e'tiqodi yoki ijtimoiy mavqeiga ta'sir qilmaydi.

# Bolalik davrining asosiy bosqichlari

Go'daklik (0–1 yosh): Rivojlanish ko'krak suti bilan oziqlanishga bog'liq. Bola boshini ushlab, ag'darilish, emaklash va ilk qadamlarni qo'yishni o'rganadi.

Ilk bolalik (1–3 yosh): Mustaqillik shakllanadi, nutq va yurish rivojlanadi, atrof-muhit faol o'yin orqali o'zlashtiriladi.

Maktabgacha davr (3–6/7 yosh): Yetakchi faoliyat — o'yin. Fantaziya, mantiqiy fikrlash, tengdoshlar bilan muloqot rivojlanadi.



# MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING PSIXODIAGNOSTIKA METODLARI

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik diagnostika metodlari** — bu bolalarning psixologik holatini, rivojlanish darajasini, emotsional va kognitiv imkoniyatlarini aniqlash hamda ularga moslashgan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan psixologik metodlarning umumiy majmuasidir.



# Psixologik diagnostika metodlarining asosiy turlari

Observatsiya (kuzatish metodi) — bolaning psixologik holati, ijtimoiy faolligi va xulq-atvorini tabiiy muhitda kuzatish orqali o'rganish usuli.

## Asosiy xususiyatlari:

1. Rejalashtirilgan
2. Aniq mezonlarga asoslanadi
3. Real vaziyatda faktlar qayd etiladi
4. Natijalar tahlil qilinadi.



## Maktabgacha ta'limda qo'llanishi:

1. Moslashuv davrida
2. O'yin jarayonida
3. Tengdoshlari bilan munosabatda
4. Tarbiyachi bilan aloqada.



## Turlari:



# Observatsiya kartasi

## Observatsiya kartasi (blankasi) – Namuna Umumiy ma'lumotlar

•Bolaning ismi (shartli):

\_\_\_\_\_

•Yoshi: \_\_\_\_\_

•Guruhi: \_\_\_\_\_

•Kuzatuv sanasi: \_\_\_\_\_

•Kuzatuvchi (psixolog/tarbiyachi):

\_\_\_\_\_

•Kuzatuv vaziyati :

Erkin o'yin     Mashg'ulot     Ovqatlanish

Sayr     Boshqa: \_\_\_\_\_

Yo'nalish	Kuzatuv belgilar (qisqacha qayd)
Emotsional holat	Quvnoq, bezovta, tinch, yig'loqi, xavotirli
Ijtimoiy xulq	Tengdoshlar bilan o'ynaydi / yakka
Muloqot	Verbal / neverbal, ochiq / yopiq
Diqqat	Barqaror / tez chalg'iydi
Faollik	Faol / passiv
Qoidalarga amal qilish	Bajaradi / qiyin
Muammoli xulq	Agressiya, injiqlik, qo'rquv
Motorika	Erkin / qiyin

# Testlar va anketa so'rovnomalari

**Psixologik testlar** bolalarning intellektual va emotsional rivojlanishini baholash uchun qo'llaniladi. Maktabgacha yoshda ular e'tibor, xotira va mantiqiy fikrlashni aniqlashga xizmat qiladi.



Kognitiv (aqliy) rivojlanish testlari (Ravenning "Rangli progressiv matritsalar", Luriyaning "10 so'zni eslab qol" metodikasi)

Maktabga psixologik tayyorgarlik testlari (Kern-Yirasek, Grafik-diktant)

Psixik rivojlanish xavfini aniqlash testlari (D. Robins, D. Feyn i M. Bartonlarning "Autizmni erta aniqlash testi")

**Anketa so'rovnomalari** pedagoglar va ota-onalarga bolalarning o'zini tutishi, ijtimoiy qobiliyatlari, uyda va jamiyatda o'zaro munosabatlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

# Kognitiv (aqliy) rivojlanish testlari

## Ravenning rangli progressiv matritsalar

4–11 yosh bolalar uchun qoʻllaniladi

(zaruratda — intellektual qiyinchiligi bor oʻsmir va kattalarga ham).

### Maqsadi:

mantiqiy va abstrakt fikrlashni, patternni anglash qobiliyatini baholash (tilga bogʻliq emas).



**Oʻtkazish vaqti:** 15–25 daqiqa.

**Qoʻllanilishi:** taʼlim va psixologik diagnostikada.

## “Rangli progressiv matritsalar” testi

36 ta topshiriq, 3 qismdan iborat:

A seriya, AB seriya, B seriya



# Kognitiv (aqliy) rivojlanish testlari

## O'tkazish bosqichlari

**1-bosqich:** 10 ta so'z o'qiladi, bola darhol takrorlaydi.

**2–5-bosqichlar:** ro'yxat qayta o'qiladi, natijalar qayd etiladi.

**6-bosqich:** 20–30 daqiqadan so'ng kechiktirilgan eslab qolish.

## "10 SO'ZNI ESLAB QOL" metodikasi

Psixolog tomonidan oldindan tayyorlangan, o'zaro mantiqiy bog'lanmagan 10 ta oddiy so'z.

**Masalan:** *olma, suv, kitob, quyosh, stol, qush, qalam, uy, bola, daraxt.*




# Maktabga psixologik tayyorgarlik testlari

**Kern–Yirasek testi** — bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda qo'llaniladigan klassik psixodiagnostik usuldir. 5–7 yosh bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bolaning maktab ta'limiga psixofiziologik tayyorligini baholashga xizmat qiladi.

**Test tuzilishi (3 ta topshiriq):**  
odam rasmini chizish;  
geometrik shakllarni ko'chirish;  
yozuv elementlarini ko'chirish.



**Baholash va natijalar**  
Maktabga tayyor  
Qisman tayyor  
Tayyor emas



# Maktabga psixologik tayyorgarlik testlari

**Grafik diktant** — bolalar bilan ishlashda keng qoʻllaniladigan rivojlantiruvchi va diagnostik metod boʻlib, u bolaning diqqati, eshitish orqali qabul qilish, fazoviy tasavvuri, vizual-motor koordinatsiyasi va oʻzini nazorat qilish qobiliyatini baholashga xizmat qiladi.


## Metodikaning maqsadi:

diqqat;  
eshitish orqali tushunish;  
fazoviy yoʻnalish;  
mayda motorika;  
harakatni rejalash va nazorat;  
maktabga tayyorlik.



## Oʻtkazish bosqichlari:

boshlangʻich nuqta koʻrsatiladi;  
psixolog yoʻnalishlarni diktant qiladi;  
bola koʻrsatmalarni bajaradi;  
yakunda shakl hosil boʻladi.




## Baholashda eʻtibor beriladigan jihatlar

Koʻrsatmalarni toʻgʻri bajarishi, kataklar sonini adashtirmasligi, yoʻnalishlarni almashtirib yubormasligi, chiziqlarning aniqligi, ishni mustaqil tugatishi.

# Psixik rivojlanish xavfini aniqlash testlari

## Ko'ziga qaramaslik




## Ishoralar va jestlar yo'qligi



## Nutq kechikishi



## Ismiga javob qaytarmaslik



## Betakror harakatlar



# Suhbat metodi

Tadqiqotchi va bolaning bevosita yoki bilvosita o'zaro muloqoti davomida birlamchi verbal axborot yig'ishga yo'naltirilgan metod. Suhbat metodi anketa yoki intervyu shaklida o'tkazilishi mumkin. Anketa yordamida suhbat o'tkazilganda bola yozma savollarga, intervyuda esa og'zaki savollarga javob qaytaradi.



# Intervyu

Psixolog va bola, shuningdek, uning ota-onalari bilan o'tkaziladigan suhbatlar orqali bolaning his-tuyg'ulari, qo'rquvlari, xavotirlari, ijtimoiy munosabatlari va boshqa psixologik jihatlarini aniqlash mumkin.




# Proyektiv metodikalar

**Proyektiv metodikalar** — boladan qat'iy javob talab qilmaydigan, rasm, hikoya yoki o'yin orqali uning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik usullardir. Asosan maktabgacha yoshdagi (3–7 yosh) bolalar bilan qo'llanadi.


«Uy – Daraxt – Odam» testi



“Oila rasmi” testi



“Odam rasmi” testi



# Loyihalash metodlari

Bu metodda bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini va dunyoqarashlarini aks ettirish uchun turli faoliyatlarga (rasm chizish, o'yinlar) jalb qilinadi. Bolalar o'zlarini qanday his qilayotganini va qanday psixologik xususiyatlarga ega ekanligini loyihalar orqali ifodalashadi.

## Rasm va ijodga asoslangan metodikalar

Qo'rquvingni chiz



Orzuvingni chiz



# Hikoyaga asoslangan qo‘shimcha proyektiv metodikalar

”Tugallanmagan jumlar” metodikasi  
(bolalarga mos)

**Maqsad:**  
bolaning ichki kechinmalarni aniqlash.



**Misol:**

“Men qo‘rqaman, qachonki...”

“Men xursand bo‘laman, agar...”

“Mening qahramonim” metodikasi

**Maqsadi:** boladagi agressiya yoki himoya strategiyalarini o‘rganish.



# Biometrik va fiziologik o'lchovlar

Ba'zi hollarda bolalarning psixologik holatini baholashda biometrik usullar (masalan, yurak urish tezligini o'lchash, terlash va boshqa fiziologik reaksiyalarni kuzatish) qo'llanilishi mumkin. Bu metodlar, ayniqsa, bolada psixologik stress yoki xavotirni aniqlashda foydali bo'ladi.



# O'yin terapiyasi

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin terapevtik vosita sifatida ishlatiladi. O'yin orqali bolalar o'z hissiyotlarini, qo'rquvlarini, shuningdek, o'zgarishlarga bo'lgan reaksiyalarini namoyon qiladilar. Psixolog o'yin faoliyatini kuzatib, boladagi psixologik holatni aniqlaydi va unga mos yondashuvni ishlab chiqadi.



# Metodlar yordamida kuzatish va tahlil qilish

Psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik diagnostikasi jarayonida turli metodlarni birgalikda qo'llashadi. Bu metodlar bolalarning individual ehtiyojlariga qarab tahlil qilinadi, va diagnostik ma'lumotlar asosida ularga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlar taklif etiladi.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**Ishtirokingiz uchun rahmat!**